

KULTEGIN VA TO'NYUQUQ BITIKTOSHLARIDAGI O'XSHATISHLAR HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Andaqulova Komila Farhod qizi

SamDU filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

MAQOLA MALUMOTI	ANNOTATSIYA:
MAQOLA TARIXI: <i>Received:10.11.2025</i> <i>Revised: 11.11.2025</i> <i>Accepted:12.11.2025</i> KALIT SO'ZLAR: <i>Qadimgi turkiy til, o'xshatish, To'nyuquq bitiktoshi, Kül Tegin bitiktoshi, -ča/-čä, -teg/-täg, tashbih, badiiy obrazlilik .</i>	<i>Mazkur maqolada qadimgi turkiy tildagi o'xshatishlarning lingvopoetik va grammatik xususiyatlari To'nyuquq va Kül Tegin bitiktoshlari misolida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida o'xshatishlarning tilda tutgan o'rni, ularning obrazlilikni kuchaytirishdagi roli hamda qadimgi turkiy va hozirgi o'zbek tilidagi o'xshatish vositalarining o'zaro farqlari yoritilgan. Xulosa sifatida qadimgi turkiy til o'xshatishlari tildagi obrazlilikni oshirish, nutqqa emotsional-ekspressiv ohang berish vositasi sifatida muhim estetik ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan.</i>

Taqqoslash mantiqiy kategoriya hisoblanadi va fanda analogiya atamasi bilan yuritiladi. Mana shu jarayonda tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalarni bir-biriga qiyoslashi, taqqoslashi oqibatida olgan natijalari uning hayotida asqotadi. Umuminsoniy, umummilliy ma'naviy-axloqiy me'yorlar asosida yashashiga ko'maklashadi. Bir so'z bilan aytganda, insonning dunyoni anglashida qiyoslash-taqqoslash nihoyatda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun inson faoliyatining biron sohasi yo'qki, unda faoliyatning bu usulidan foydalanmagan bo'lsin.

Mana shu jarayonlar badiiy asarning asosiy qahramonlari faoliyatiga ham ko'chadi. Ammo ular shunchaki bir narsa-hodisani ikkinchisiga qiyoslash bosqichida qolib ketmaydi, balki yangi bosqichga ko'tariladi – obrazli tafakkur vositasiga aylanadi. Natijada, badiiy tasvirning o'xshatish deb nomlangan yangi vositasi vujudga keladi va ular obrazlilik hamda lingvopoetik vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi.

O'xshatishning lingvistik tabiati, uning badiiy matnlardagi vazifasi o'zbek tilshunosligida o'rganilgan va bu tadqiqotlar davom etmoqda. M.Mukarramovning «O'zbek tilida o'xshatish» (Toshkent, 1976), R.Qo'ng'urovning «O'zbek tili stilistikasidan ocherklar» (Samarqand, 1975), «O'zbek tilining tasviriy vositalari» (Toshkent, 1977), S.Karimovning «Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari» (Samarqand, 1994) asarlari shular jumlasidandir. [1;192].

O'xshatish badiiy tasvir vositasi sifatida adabiyotshunoslikda tashbih san'atini yuzaga chiqaradi. Atoullloh Husainiyning "Badoyi' us-sanoyi'" asarida tashbihga quydagicha ta'rif berilgan: "Tashbih vasfta bir nimani bir nimag'a o'xshatmoqtin iborattur. Anikim, tashbih qilurlar mushabbah derlar va anikim, anga tashbih qilurlar mushabbah bih derlar va ul vasfni vajh-i shibh derlar. [2;212].

O'xshatishlar bir narsani ikkinchi narsaga qiyoslabgina qolmasdan nutq ta'sirchanligini oshirish va unga uslubiy bo'yoqdorlik berish bilan alohida ahamiyat kasb etadi. O'xshatishlarning ilk namunalarini qadimgi turkiy tilga mansub bo'lgan yodgorliklarda ko'rishimiz mumkin. Bunga misol qilib To'nyuquq bitigidagi quydagi o'xshatishni olamiz: Tagdimiz, yayidimiz, akinti kun kalti, ortca qizip kalti, sunusdimiz. (Hujum qildik, tor-mor qildik. Ikkinchi kun keldi, yong'inday qizib keldi, urushdik.) [3;77]. O'xshatish to'rt qisimdan iborat deb qaraydigan bo'lsak, yuqoridagi misolda kun o'xshatilgan narsa, ort o'xshayotgan narsa, -ca o'xshatish vositasi, qizip kalti, ya'ni yong'inning qizib kelishi o'xshatish sababi hisoblanadi. -ca, -ca affiksi Ko'k turk bitiklarida va "Qutadg'u bilig"da tilakkä – tilagancha, keräkcä – keragicha, kezikcä – navbat bilan [4;129] kabi ko'rinishlarda ravish yasovchi qo'shimcha sifatida uchraydi. Yuqoridagi o'xshatishga qo'shimcha tarzda Kul tigin bitigida xuddi shu affiks bilan hosil qilingan o'xshatishlarga e'tibor qaratamiz: Barduq yardä ädgüg ol ärinç: qanin subca yugürti, söñükün tagca yatdi. (Borgan yerda ezgulik shu bo'lsa kerak: qoning suvday oqdi, suyaging tog'day (uyulib) yotdi.) [4;177]. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, bu misollarda tashbih va mubolag'a san'atini ko'rishimiz mumkin.

Qadimgi turkiy manbalarda -ca, -ca affiksi bilan birgalikda -tag, -teg affikslari ham o'xshatish vositasi bo'lib kelgan o'rinlar bor. Hozirgi o'zbek tilida ushbu affiks -dek, -day, -däy shakllarida qo'llanilmoqda. Anta kisrä inisi äçisin-tag qilinmaduq ärinç, oğli qanin-tag qilinmaduq ärinç. (Undan keyin inisi og'asiday ish tutmagan ekan, o'g'li otasiday ish tutmagan ekan.) Mazkur o'xshatish vositasi tarixan teg- fe'lidan hosil bo'lgan ko'rinadi. Qiyoslang, "Qutadg'u bilig"da tiläkkä tegir – tilakka yetdi. Hozirgi o'zbek tilida ağzi ağgä

tegdu degändä – og‘zi oshga yetdi deganda ma’nosini beradi. [4;130]. Äčisin-täg, qañin-tag o‘xshatishlarida uslubiy bo‘yoqdorlikni ko‘rmaymiz. Umay-täg ögüm qatun qutıña inim Kül tigin är at bultı. (Umaydek onam xotun baxtiga inim Kul tigin er (degan) nom topdi.) Bu misolda onaning ilohiy tangriga o‘xshatilishini ko‘ramiz. Umay (täñri Umay) Ko‘k turklarda Umay onalik tangrisidir. [5;72]. Bu yerda onani Umay tangriga o‘xshatish asnosida unga yuqori baho berilgan, ulug‘langan.

Avvalo, ta’kidlash lozimki, o‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo‘ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘xshatishlarning ikki turi, ya’ni 1) individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi.

Turg‘un o‘xshatishlarning mohiyati shundan iboratki, ularda o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo‘llangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan til jamoasida urfga kiri, doimiy ifodalar sifatida turg‘unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo‘ladi. Bunday o‘xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi. [6;6]

Qadimgi turkiy tilda ham turg‘un o‘xshatishlar nutqning badiiy-estetik qimmatini oshirishga xizmat qilgan. Masalan, Kul tigin bitigidan quyidagi jumlagga e’tibor qaratamiz: Täñri küč birtük üçün qañim qağan süsi böri-täg ärmis, yağisı qoñ-tag ärmis. (Tangri kuch bergani uchun otam xoqonning lashkari bo‘ridek ekan, dushmani qo‘ydek ekan.) Bu yerda böri-täg va qoñ-tag o‘xshatishlari badiiy obrazlilikni keltirib chiqargan holda tazod san’atiga ham yorqin namuna bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu o‘xshatishlar Nizomiddin Mahmudov va Durdona Xudoyberganovalarning “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” kitobida quydagicha izohlangan: Bo‘riday (kabi, -ga o‘xshab) 1. Dovyurak, yovqur, mard. Odam haqida. 2. G‘ajimoq, tish qayramaoq. Bir-biriga shavqatsizlik bilan haqsiz ravishda yomonlik qilmoq yoki shunga urinmoq. [6;54]. Bo‘ri-täg so‘zi birinchi izohga to‘g‘ri keladi. Birinchidan, lashkarning dovyurak, yozvqur, mardligi haqida gap ketayotgan bo‘lsa, ikkinchidan, lashkar shaxslar guruhini ifodalagan. Qo‘yday (kabi, singari)1. Yuvoş, tezda qizishib ketmaydigan, keskin, qizg‘in harakatlarga moyil bo‘lmagan. 2. Bo‘g‘izlamoq, so‘ymoq. Shavqatsizlarcha, berahmlik bilan odamning boshini tanasidan judo qilmoq. [6;309]. Qoñ-tag o‘xshatishida xuddi shunday ma’nolar yuzaga chiqmoqda.

Qadimgi turkiy tilda o‘xshatishlar ismlardan va fe’lning vazifa shakillaridan yasalgan. Hozirgi o‘zbek tilidan farqli o‘laroq qadimgi turkiy tilda o‘xshatish vositalari bo‘lgan -ča, -

čä, -teg, -täg affikslari ravish yasovchilar bo'lib xizmat qilgan. Inim Kül tigin kârgäk bolti, özüm saqintim: körür közüm körmâz-täg, bilir biligim bilmâz-täg bolti, özüm saqintim. (Inim Kul tigin vafot etdi, o'zim alam chekdim; ko'rar ko'zim ko'rmasdek, bilar bilimim bilmasdek bo'ldi, o'zim alam chekdim).

Xulosa qilib aytganda, qadimgi turkiy tilda ham o'xshatishlardan sermahsul foydalanilgan. Qadimgi turkiy tilda va hozirgi o'zbek tilidagi o'xshatish vositalarining farqi shundaki, qadimgi turkiy tildagi -ča, -čä, -teg, -täg affikslariga so'z yasovchi sifatida qaralsa, hozirgi o'zbek tildagi ularning muqobili bo'lgan -dek affiksi shakl yasovchi sifatida qo'llaniladi. Yuqorida keltirilgan misollarda -teg, -täg affiksini asos qismidan chiziqcha bilan ajratilib yozilishini sababi tarixan ular mustaqil so'z vazifasini bajargan, ya'ni ushbu o'xshatish tarixan teg- fe'lidan hosil bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov S. Nutq madaniyati va mutolaa san'ati -Samarqand: SamDU nashri, 2020. - B 239.
2. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. -Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. -Б 298.
3. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. -Тошкент: Ўқитувчи, 1982. -Б 164.
4. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. -Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. -B 223.
5. Исҳоқов М., Содиқов Қ., Омонов Қ. Мангу битиклар. -Тошкент, 2009. -Б 115.
6. Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. -Тошкент: Маънавият, 2013. -Б 319.